

NAVRO'Z BAYRAMINING TARIXIY ILDIZLARI*Rashidova Ra'no**Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada qadimiy bayramlardan biri bo'lgan Navro'zning paydo bo'lish tarixi, turli davrlarda unga bo'lgan munosabat, Navro'z udumlari, Navoiy dostonlarida unga qanday ta'rif berilgani ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Navro'z, urf-odat, Beruniy, marosim, Jamshid

Аннотация: В статье раскрываются история возникновения одного из древнейших праздников — Навруза, отношение к нему в различные исторические периоды, традиции и обычаи Навруза, а также то, как этот праздник описывается в поэмах Навои.

Ключевые слова: Навруз, традиции, Беруни, обряд, Джамшид

Abstract: The article analyzes the origin of Navruz as one of the most ancient holidays, the attitudes toward it in different historical periods, its traditions and customs, and how the holiday is described in Navoi's epics.

Keywords: Navruz, traditions, Beruni, ceremony, Jamshid

Navro'z Sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. Ko'p asrlar davomida makedoniyalik Aleksandr, arablar, mo'g'ullar kabi bir qancha bosqinchi qo'shinlar Sharq xalqlarining umumiy bayrami Navro'zni yo'q qilib, halok qilib yuborishga harakat qildilar. Ammo Navro'z barhayotligicha qolaverdi, qayta tirilaverdi. Navro'z biron bir sanani nishonlash uchungina bayram qilinadigan hodisa hisoblanmaydi. U tabiatning o'zidan kelib chiqqan, kunu tun tenglashgandan so'ng, endi kunlarning uzayishi, uzluksiz mehnat arafasidagi bayramdir. Uzoq qishdan so'ng ko'kdagi quyoshning yuz ko'rsatishi, qirda maysa-giyohlarning nish urib chiqishi xalqimiz uchun haqiqiy shodiyonaga aylangan. Nega deganda, o'tgan yilgi yig'ilgan galla ham, oziq-ovqatlar ham sob bo'lay degan, iliq-uzdi paytlarda yana Ona Tabiatning o'zi mehr-muruvvat ko'rsatib, yorug' kunlardan darak bergan. Shu kunlarga eson-omon yetib kelishgan qariyalarning ham tomirlarida qaytadan g'ayrat jo'sh urgan. Nav — yangi, ro'z — kun; ya'ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas. Navro'z bayramini barcha fors, arab, turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar har yili bahorda nishonlab kelishgan. Bu qadimiy, an'anaviy Yangi yil bayramimiz haqida ulug' bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida, Mahmud Qoshg'ariy esa "Devonu lug'atit turk" asarida juda qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Umar Xayyom olim, shoir, faylasuf sifatida bu bayram haqida "Navro'znoma" nomli maxsus kitob yozganlar. Navoiyning ustozlari — turkigo'y shoirlarning malikul kalomi — Lutfiy domla "Gul va Navro'z" o'lmas dostonini

yaratganlarki, bu asar hamon sahnalarimizni bezab, bizga Navro'z haqida adabiy-badiiy tushuncha, ma'lumot berishda davom etib kelyapti. Navro'z bayramiga Sovet davrida ham katta hujum uyushtirildi. Ammo qadimiy odatimiz bu galgi qatog'ondan ham eson-omon o'tib oldi. Mana, butun ona biz o'zbeklar ham barcha Sharq xalqlari singari o'z milliy urf-odatimiz Navro'z — Yangi yil bayramimizni bor malohati, bo'y-basti bilan kulib-quvna b o'tkazyapmiz. Navro'z bayrami kecha bilan kunduzning tenglashgan payti, bahor faslining 21-22-mart kunlaridan boshlab bir hafta, o'n kun davomida o'tkazilgan¹.

Bu bayram, avvalo, tabiatning jonlanishi, yangilanishi, yangi yil boshlanishi yurtimizga go'zal bahor faslining kirib kelib, kelinchakdek o'z yashil sepini keng yoyishi bilan boshlangan. Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o'tkazishgan. Qadimda ajdodlarimiz Navro'z kunlari qish manzillari — qishloqlardan ezgu mehnat va hordiq maskanlari — yozloqlarga ko'chib o'tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo'sh solishgan. Jamoa-jamoa bo'lib, hashar-osharlar uyushtirilgan. O'tgan ajdodlar ruhi yod qilingan. Ularning mozorlari obodonlashtirilib, ko'kalamzorlashtirilgan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro'z — yangi yil, yangi hayot qaynagan. Navro'z bayramiga atab ajdodlarimiz maxsus kiyimlar tayyorlashgan va ularni kiyib bayram qilishgan. Navro'z taomlari o'ziga xos bo'lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim tayyorlash an'anaviy odat tusiga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroklari, ayniqsa, juda faol bo'lgan. Ular Navro'z bayrami haftaligi oyligida turli ommaviy bayram o'yinlari o'ynaganlar. Ot o'yin, chillak, ko'g'irchoq o'yin, tosh, lapar, o'spirinlar, o'spirinlar, bo'y qizlar, ayniqsa, sumalak pishirish marosimida faol ishtirok etish uchun unga ancha ilgariroq tayyorgarlik ko'rishgan. Bug'doy donini maxsus idishlarda qulay iqlim sharoiti yaratib, sabza qilib undirib olishgan. So'ng uni kecha-kunduzi qozonlarda qaynatib, sumalak tayyorlangan. Ayniqsa, tunu kun tinmay doshqozon qaynab tursa, ancha-muncha o'tin chidamasdi. Shuning uchun har bir xonadon bir bog', yarim bog'dan, ishqilib, o'tinga ham o'z ulushlarini qo'shganlar. Bu arzimagan ko'ringan harakat ostida juda ulkan ma'no yotibdi: xalqning birlashib harakat qilishga inonu tuyg'usi, topgan-tutganini birga baham ko'rishga intilishi yotibdi. Bu jarayonlarda turli-tuman xalq o'yinlari, bahor qo'shiqlari ijro etilgan. Kitobxonliklar, turli jismoniy tarbiya-sovrunli o'yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Ko'pkari-uloq, kurash, turli hayvon va parrandalar «jang»lari, xo'ro'z, it, qo'chqor urishtirish, masxarabozlik, askiyabozlik, qo'g'irchoq o'yinlari, xalq tomoshalari o'tkazilgan². Qo'shni Tojikistonning G'onchi tumanida har yili Navro'z mahali kelinchaklar sayli o'tkazilishi qadim-qadimdan odat tusiga kirgan. Bu sayilga oq harir pardalar tutgan,

¹ Sattorov M. O'zbek udumlari. - T.: Adolat. 2004. -B. 93-94.

² Sattorov M. O'zbek udumlari. - T.: Adolat. 2004. -B. 95.

kuyovga tushganiga bir yildan oshmagan kelinchaklar qatnashadi. Ular ustida xuddi oq gullar to'qinidek ketaverishadi. Qo'llarida o'zlari mehr qo'yib tikkan matolari, so'zanalar, belbog'lari bo'ladi. Ikki tomonda qatorlashib turgan tomoshabinlar o'tayotgan kelinchaklarning birortasini ham ko'zdan qochirishmaydi. Kelinchaklarning orzu-armonlari, uy-xayollari bitilgan matolarning qaysi biri ko'proq olqish olsa, o'sha g'olib, maqtovg'a sazovor bo'ladi. Bu benihoyat chiroyli, go'zal sayildir. Bu xil sayillarni o'rganib, ommalashtirish zarur. Navro'z bayramining eng ahamiyatli jihatlaridan biri — keksalarga hurmat, ularning hollaridan xabar olish, ko'mak berishdir. Navro'z tiriklik bayrami sifatida mashhur bo'lib, uning tagin bir muhim xosiyati: bu kunlar marhumlar yodiga juda katta ahamiyat berilgan. Machitu madrasa, xonadon u mahalla mozor-ziyosatgohlarida qur'on o'qitilib, jonliqlar so'yilgan. Yetim-esir, bola-baqralar uchun katta doshqozonlar osilib, qurbonlik taomlari pishirilgan. Har bir oila o'z xonalarini, ortiqcha, boshqalarnikini ham tozalab, opasta qilishgan. Qabrlarning shikast-rextlarini ta'mirlashgan. Mevali daraxtu gul chechaklar o'tkazishgan. Buxoro amirligi ma'rifatparvarlaridan biri Salimbek Nurota muzofotiga bek tayinlangan, Navro'z kunlari ulug' zi-yoratgoh Nuri Ota maqbaralarini ta'mirlash jarayonida qabrning yulib qolgan joylariga ko'zi tushib, xilxonani ochib, qayta yopish fatvosini olgan. Qur'on tushirtirib qabrni ochgan, xuddi tirik insonday mangu uyquda yotgan avliyo jasadi-riga nigohi tushgan. Nuri Ota xuddi ming yil avvalgidek, oppoq soqollari ko'ksilariga tushib, yuzlari to'la nur bilan yotgan ekanlar. Shu zahoti jasadning unniqib, qoraya boshlaganini sezgan Salimbek me'mor-ustalarga ta'mirni shoshilinch tugatib, qabrni yopish topshirig'ini bergan. Afsuski, 1941-yilda Go'ri Amir xilxonasini ochgan hukumat komissiyasi a'zolari xalqlarimizning an'anaviy muqaddas tuyg'ularini nazar-pisand qilishmaganlar. Udumlarimizni oyoqosti qilganlar... Bayram kunlari oralaridan gap qochgan qabila, guruh yoki yakka shaxslar: do'st-og'aynilar, qarindosh-urug'lar yarashib, bir-birlarini Navro'z bilan tabriklab, eson-omonlik, tinchlik-xotirjamlik tilashgan. Qozoq og'aynilarimiz Navro'z ko'jasi, tojik qadrdonlarimiz Navro'z ko'mochi, biz o'zbeklar esa sumalak, halim, ko'sh oshi kabi Navro'z taomlari bilan yon qo'shni — jon qo'shnilar bir-birlarimizni siylab, bayramni birgalikda o'tkazganmiz. O'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman va ozor xalqlari Navro'z bahonasida bir-birlarini to'ldirib, boyitib borganlar. Bundan xalqlar o'rtasidagi do'stlik — baynalmilallik qaror topgan, yanada mustahkamlangan. Mustaqillik yillarida barcha qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analарimiz kabi Navro'z ham qayta tug'ilib, zamonaviy milliy udumlar bilan boyidi. Navro'z O'zbekistonda ikkita ulug' bayramning biriga aylandi qoldi ³.

Butun Old va O'rta Osiyoda mashhur Navro'z bayrami va marosimlari juda uzoq davrlardan beri nishonlanib kelinadi. Bu bayram aslida dehqonchilik

³ Sattorov M. O'zbek udumlari. - T.: Adolat. 2004. -B. 95-96.

kalendari bilan bog'liq bo'lib, Yerning Shimoliy yarim sharida bahorgi kecha bilan kunduz teng kelgan kunlari 20–21 martdan boshlanadi. Usha davrda butun tabiat uyg'ona boshlaydi, yer bag'ridagi barcha mavjudot va jonzotlarning, kurt-kumursqalar, o'simlik va tirik jonlarning jonlanishi ro'y beradi. Bunday yangilanish jarayonining boshlanishi shamol (Quyosh) yili hisobida 21 martga to'g'ri kelib, birinchi yangi kunni Navro'z deb ataganlar. O'rta asrning buyuk mutafakkiri Beruniy mazkur yil hisobining boshlanish oyi hisoblangan farvardin oyi to'g'risida gapirib bunday yozadi: «Navro'z yangi yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi hali shu ma'noni taqozo etadi. Navro'z eronliklar zardushtiylar davridayoq, ular yillarni kabisa qilish vaqtlarida Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgan, bahorda keladigan bo'ldi. Endi u bahor mavsumining birinchi tomchisining tushishidan, gullar ochilguncha va o'simlik unib chiqaguncha davom etgan vaqtga keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan». Usha davrda yashagan ulug' siymolar Mahmud Koshg'ariy va Umar Xayyomlar ham Navro'z to'g'risida ancha qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Ularning asarlarida Navro'zning tabiat qonuniyatiga muvofiq tomoni qayd qilingan bo'lib, u bilan bog'liq turli irim, urf-odat va marosimlar to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Beruniyning ta'rificha, afsunlar Navro'z kuni tong otganda birov gap gapirishdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak (yoki uch bo'lak) mum tutatsa, bu ko'p kasalliklarga shifo bo'larmish. Yoki shu kunning tongida gap gapirishdan oldin shakar totib, yuziga zaytun (yog'i) surtgan kishidan yil bo'yi turli balolar daf etiladi, degan irimlar bo'lgan. Bayram urf-odatlari haqida so'zlab, alloma shunday deb yozadi: «Eronliklarda Navro'z kuni bir-birlariga shakar hadya qilish rasm bo'lgan edi» Ozorbonning hikoya qilishicha, buning sababi, Navro'z kuni Jamshid mamlakatida shakarqamish paydo bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy ham Navro'z to'g'risida o'n ikki muchal yil bilan bog'liq turli ma'lumotlar beradi⁴. Navro'z bayrami bahorga bag'ishlangan xalq qo'shiqlaridan namunalarni keltiradi. Rivoyatlardan birida Navro'zga borib taqaladigan muchal yillarga hayvonlar nomlarini tilga olib, shunday deb yozadi: «Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor, deb hisoblaydilar. Masalan, ularcha sigir yili bo'lsa, urush ko'p bo'ladi, chunki sigir bir-biri bilan suzishadigan hayvon. Tovuq yili kirsa, oziq-ovqat ko'payadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo'lib, uni topib yeyish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh yili kirsa, ekinchilik va hosil ko'p bo'ladi, chunki u suvda yashaydi. To'ng'iz yili kirsa, sovuq, qor va fitna ko'p bo'ladi...» Ko'chmanchi va musulmon bo'lmagan turklar oylarni to'rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyini bir ism bilan yuritadilar. Masalan, Navro'z (yangi kun)dan keyingi avval bahorga bog'liq oy derlar. Chunki oy bu vaqtda katta bo'lib qoladi... Navro'zdan boshlab yilning ilk fasli

⁴ Jabborov I. O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). - T.: Sharq. 2008. -B. 144.

sanalgan va barcha fasllar tabiat qonuni hamda osmon sayyorolari (Oy, Quyosh) holatiga qarab belgilanadi. Qadimiy O'rta Osiyoda va Eronda Navro'z nafaqat xalq, balki davlat bayrami sifatida ham nishonlangan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, odamlarni tabaqalarga bo'lib, Navro'z bayramini bir oyga cho'zib, har besh kunni bir tabaqaga taalluqli deb hisoblashgan. Masalan, Eronda birinchi besh kunlik podshohniki, ikkinchisi zodagon zotlarniki, uchinchi besh kunlik podsho xizmatkorlariniki, to'rtinchi — oddiy xalqniki hisoblangan. Podsho Navro'zning besh kunligida shoh bayramini boshlab bergan va fuqarolar bilan muloqotda bo'lishni hamda muruvvat qilishni e'lon qilgan. Ikkinchi kuni u dehqon va aslzodalarni qabul qilgan, uchinchi kuni otiqlar va oliy ruhoniy (moted)larni, to'rtinchi kuni o'z farzandlari va fuqarolarni qabul qilgan. Oltinchi kun ulug' bayram hisoblanib, unga «Katta Navro'z» deb nom berilgan. Xorazmliklar va sug'diyalarda sosoniylar hukmronligi davrida Navro'z bilan birga bir necha xalq bayramlari davlat bayrami deb e'lon qilingan⁵. Beruniy asarlarida, Umar Xayyomning «Navro'znoma»sida va boshqa manbalarda ilk bahor bayramini nishonlaganda yerga suv quyish yoki sepish, sovg'a-salomlar hadya qilish, arimchoqlarda uchish, shirinlik (qandolat) tarqatish, etti xil hosilni belgilang, tahorat qilish va umriga suvga cho'milish kabi urf-odat, irimlar to'g'risida xabar beriladi. Navro'z kuni podshoh dasturxoniga turli xil dondan pishirilgan non qo'yilgan. Dasturxon o'rtasiga turli xil daraxtlardan 7 novda, 7 oq kosa va oq dirham, yangi dinor ham qo'yilgan. Podshoga oq qand va kokos yong'og'idan maxsus taom berganlar, u taomni yangi sog'ilib, xurmo qo'shilgan sut bilan iste'mol qilgan. Hozirgacha Eronda Navro'z dasturxoniga marosimga binoan 7 xil "s" harfi bilan boshlanadigan narsalar tortiladi⁶.

Dostonlarda Navro'z navosi Zotan, hazrat Navoiy ijodining zarralarida quyoshlar aks etgani uchun uning mayda-mayda chizgilari zamirida ham katta-katta masalalar yotibdi. Navro'z va Navoiy... Bir-biriga naqadar bog'liq tushunchalar. Garchi Navro'zni nishonlash o'zbek uchun Navoiydan necha-necha asrlar oldindan meros bo'lib kelayotgan bo'lsa-da, bu bayramga dohiy shoirimizning munosabatini bilish bugun uchun ham, kelajak uchun ham juda zarur. Avvalo, Navro'z — Navoiy uchun muhim bir badiiy vosita vazifasini o'tagan. «Bo'yi birla sochi teng» kelinchak faslida tahlil etilganidek, shoir dostonlarining o'zidagina ana shu yangi yil bilan bog'liq turli-tuman tasvirlarga duch kelamiz. Ma'lumki, Navoiy jami oltita doston yaratgan. Ularning beshtasi «Xamsa» epopeyasini tashkil etadi. Umrining so'nggi yillarida esa shoir oltinchi masnaviysi — «Lison ut-tayr»ni bitdi. Ana shu dostonlarining barchasida Navro'z tilga olingan. «Hayrat ul-abror»ning 17-maqoloti, shoir tili bilan aytganda, «bahor yigitligi» va «xazon qariligi» haqida. Unda Navoiy Navro'zdan boshlanadigan hamal oyidagi tabiat tasviri bilan kishining yoshligiga xos fe'l-atvorni chizadi. Bob

⁵ Jabborov I. O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). - T.: Sharq. 2008. -B. 145.

⁶ Jabborov I. O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). - T.: Sharq. 2008. -B.146

hamal tilga olingan bayt bilan boshlangan — Quyosh hamal ayvonini yoritgan zahoti osmon dunyoga mehrini ko'rsatadi:

Chun hamal ayvonini yorutti mehr, Dahruga mehr ayladi zohir sipehr.

Shundan keyin ketma-ket 22 baytda bahor tabiati qalamga olinadi. So'ng yoz va kuz tasviriga o'tiladi. Asta-sekin shoir tabiat haqidagi fikrlarni inson umrining bahoriyu kuzi xususidagi mulohazalarga aylantira boradi, hamalni tilga olish unga shuning uchun kerak bo'lgan:

Gulshani umr ichra xazonu bahor, Ham bu guliston bila bir hukmi bor.

Ham quyoshga chu bo'ldi mahal, Chiqqusi bayt un-sharafidin hamal.

«Farhod va Shirin»ning 17-bobida ketma-ket 41 baytda 45 bor «gul» so'zi qo'llanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, Navro'zdan faqat yangi yil emas, umuman, bahor boshlangani uchun bu fasl 21-iyungacha davom etadi, deb hisoblangan. Shuning uchun Navoiyda bahor haqida gap ketsa, albatta, hamal tilga olinadi. «Layli va Majnun»dagi me'roj tasvirida ham xuddi «Hayrat ul-abror»da uchraydigan me'roj talqinidagiga o'xshash badiiy usul qo'llaniladi: payg'ambarning osmonga parvozlari payti o'n ikki burj ham ul zoti azizga tasanno aytadi, hamal bilan savr esa u kishiga jonlarini qurbon qilishga tayyor ekanligini bayon etadi:

Savru hamal aylabon fig'onlar, Qurboni aning qilurga jonlar.

«Sab'ai sayyor»dagi me'roj tasrifida kelgan bobda ham hamal bilan savrning payg'ambarga o'zini qurbon qilishi xususida gap boradi:

Hamalu savr qol-u nola qilib, To'shaliqqa o'zin havola qilib.

Demak, shoir garchi ikki dostonida ham aynan me'roj tasvirida bir xil masalani yoritisa-da, badiiy ifoda ma'nosida ularning har biriga alohida badiiylik baxsh etadi. «Saddi Iskandariy»ning 35-bobi Iskandarning Xurosonu Movarounnahru Kashmir mamlakatlarini egallashi haqida. Qishda xaqontir Qorabog' va Arron qishloqlarida edi. Butun xayoli Xurosonga lashkar tortish rejasi bilan band edi. Ana shu Xuroson sari yurish ham hamaldan — Navro'zdan boshlandi. Shoir sarkardaning lashkar tortishini tabiatning dasht uzra sabza saf etganiga qiyos ham qiladi. Bu dostonida Iskandarning nikoh to'y'i tasviri uchun ham Navro'z mahali tanlangan. Boshqa asarlarida bo'lgani kabi, Navoiy to'y bayonida Navro'zni ham «kelinchak» deydi:

Bahor erdi-yu, gul arusiga zeb,
Arusona bulbulga andin fireb ⁷.

⁷ Olimov S. Bayramlarimiz.- T.: Ma'naviyat. 2008. -B.25-26.